XALQ DEPUTATLARI URGANCH TUMANI KENGASHINING

Q A R O R I

2024-yil 27-dekabr VII-3-021-12-173-K/24 Urganch tumani

Urganch tumanining 2025-yilgi mahalliy byudjetini tasdiqlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6, 24-moddalari, Byudjet kodeksining 27, 99-moddalari, “2025-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to‘g‘risida”gi 2024-yil 24-dekabrdagi O‘RQ-1011-son Qonuniga va xalq deputatlari Xorazm viloyati tuman Kengashining 2024-yil 26-dekabrdagi VII-4-029-12-0-K/24-son qaroriga muvofiq hamda viloyat hokimligining 2024-yil 26-dekabrdagi 02-7-09/12551-sonli xatini inobatga olib, xalq deputatlari Urganch tuman Kengashi

QAROR QILADI:

1. O‘zbekiston Respublikasining “2025-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to‘g‘risida”gi Qonuni hamda xalq deputatlari viloyat Kengashining 2024-yil 26-dekabrdagi VII-4-029-12-0-K/24-son qarori (keyingi o‘rinlarda qaror deb yuritiladi) rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Mazkur qarorga muvofiq, Urganch tumani mahalliy byudjetining 2025-yilgi daromadlari **125,044 mlrd.so‘m** va xarajatlari esa **125,044 mlrd.so‘mga** ma'lumot uchun qabul qilinganligi hamda Urganch tumani mahalliy byudjetining shaxsiy g‘azna hisobvarag‘ida turgan byudjet mablag‘larining yo‘l qo‘yiladigan eng kam miqdori **0,985 mlrd.so‘m** etib belgilanganligi inobatga olinsin.

3. Tuman mahalliy byudjeti daromadlarining 2025-yil uchun asosiy prognoz ko‘rsatkichlari 1-ilovaga muvofiq hamda tuman mahalliy byudjetidan 2025-yilda hududiy byudjet mablag‘larini taqsimlovchilarga ajratiladigan xarajatlarning umumiy cheklangan miqdorlari 2-ilovaga muvofiq, shuningdek Urganch tumani mahalliy byudjetiga umumdavlat soliqlari va boshqa soliqsiz tushumlardan ajratmalar me'yorlari 3-ilovaga muvofiq, 2025-yil uchun tuman mahalliy budjetining daromadlari va xarajatlarining prognozi 4-ilovaga muvofiq, tuman mahalliy byudjetining shaxsiy g‘azna hisobvarag‘ida turgan byudjet mablag‘larining yo‘l qo‘yiladigan eng kam miqdori5-ilovaga tasdiqlansin.

4. Tuman mahalliy byudjeti zaxira jamg‘armasi hajmi 2025-yil uchun **1,701 mlrd.so‘m** miqdorida belgilansin. Bunda, zaxira jamg‘armasi mablag‘larini amaldagi byudjet qonunchiligiga muvofiq, byudjet tizimi byudjetlari shakllantirilayotganda oldindan nazarda tutib bo‘lmaydigan xarajatlarni, shuningdek ijtimoiy-iqtisodiy beqarorlik yuzaga kelgan vaziyatlarda amalga oshirilishi zarur bo‘lgan tadbirlarni moliyalashtirish uchun yo‘naltirilishi ta'minlansin.

5. Tuman hokimining moliya-iqtisodiyot va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha birinchi o‘rinbosari P.Madraimov, tuman Iqtisodiyot va moliya bo‘limi boshlig‘i R.Sabirov tuman soliq inspeksiyasi J.Egamov bilan birgalikda 2025-yil mahalliy byudjeti uchun belgilangan ko‘rsatkichlarni o‘z vaqtida va samarali bajarilishini ta'minlash choralarini ko‘rsin.

6. Tuman hokimligi, mas′ul idora va tashkilotlar 2025-yil uchun ajratilayotgan byudjet mablag‘laridan maqsadli va samarali foydalanish, xususan ish haqi va unga tenglashtirilgan to‘lovlar, oziq-ovqat, dori-darmon, kommunal xizmatlar va davlat dasturlari uchun belgilangan xarajatlarni birinchi navbatda to‘liq rejalashtirilishi va o‘z vaqtida to‘lanishi hamda davriy jamlanma moliyaviy hisobotlarni to‘g‘ri shakllantirilishi va o‘z vaqtida taqdim etilishini ta'minlasin.

7. Mazkur qaror tegishli tahririyatlar va ommaviy axborot vositalarida yoritilishitavsiya etilsin hamda tuman hokimligining rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin.

8. Mazkur qaror bajarilishini nazorat qilish xalq deputatlari tuman Kengashining Mahalliy budjet, tadbirkorlikni rivojlantirish va iqtisodiy islohotlar masalalari bo‘yicha doimiy komissiya zimmasiga yuklatilsin.

Kengash raisi



SULTANOV
GAYRATJON
PO‘LATOVICH

Xalq deputatlari Urganch tumani
Kengashining
2024-yil 27-dekabrdagi
VII-3-021-12-173-K/24 -son qaroriga
1-ilova

Urganch tumani mahalliy byudjeti daromadlarining
2025-yildagi asosiy prognoz ko‘rsatkichlari

ming so‘mda

T/P	Daromad turlari	Jami
1	Aylanmadan olinadigan soliq	24 148 000,0
2	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i	33 885 290,0
3	Yakka tartibdagi tadbirkorlar uchun jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i	1 528 000,0
4	Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	12 607 000,0
5	Jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig‘i	12 713 129,0
6	Yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘i	19 970 000,0
7	Jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘i	14 034 000,0
8	Qurilish materiallari bo‘yicha yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq	639 000,0
9	Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq	2 099 000,0
10	Davlat mulki bo‘yicha ijara to‘lovlari	599 000,0
11	Qishloq xo'jaligi korxonalarining suv solig'i	2 821 800,0
JAMI DAROMAD		**125 044 219,0**

Xalq deputatlari Urganch tumani
Kengashining
2024-yil 27-dekabrdagi
VII-3-021-12-173-K/24 -son qaroriga
2-ilova

"2025 yil uchun Urganch tumanining mahalliy byudjetidan mablag' oluvchilariga ajratiladigan mablag'larning cheklangan miqdori"		
		ming so`m
T/r	**Tuman byudjetidan mablag‘ oluvchilar nomi**	**Cheklangan miqdor**
Xarajatlar miqdori, jami		**125 044 219**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	**125 044 219**
1	**Maorif**	**33 261 751**
	- maktabgacha ta’lim	**14 532 716**
	- umumiy ta’lim	**18 729 035**
2	**Madaniyat bo‘limi**	**2 302 792**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	**2 302 792**
	shundan:	
	Axborot kutubxona markazi	**724 199**
	Madaniyat bo‘limi	**1 578 593**
3	**Sport bo‘limi**	**5 848 707**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	**5 848 707**
4	**Yoshlar ishlari agentligi bo‘limi**	**7 333 450**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	**7 333 450**
5	**Fermerlar buxgaltenriyasini saqlash xarajatlari**	**300 670**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	**300 670**
6	**Veterinariya qo‘mitasi**	**0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	**0**
7	**Irrigatsiya bo‘limi**	**1 422 239**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	**1 422 239**
8	**Iqtisodiyot va moliya bo‘limi**	**2 373 671**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	**2 373 671**

9	**Kambagʻallikni qisqartirish va bandlik boʻlimi**	**1 948 958**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	**1 948 958**
10	**"Mahalla budjeti" jamgʻarmasi mablagʻlari**	**1 856 000**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	**1 856 000**
11	**Hokimlik**	**48 089 785**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	**48 089 785**
	shundan:	
	Tuman hokimligi	2 388 618
	Xalq qabulxonasi	59 851
	Zaxira jamgʻarmasi	1 701 388
	Xalq deputatlari Kengashi kotibiyatini saqlash xarajatlari	239 164
	Xokim yordamchilari	6 735 715
	Tashabbusli budjet (mening maktabim)	2 588 509
	Fuqarolar tashabbusi jamgʻarmasi	29 138 302
	Veterinariya boʻlimi	2 436 463
	Oila va xotin-qizlar boʻlimi	2 655 768
	Madaniyat boʻlimi	146 007
12	**Hokimlik (Obodonlashtirish boʻlimi)**	**20 078 128**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	**20 078 128**
13	**Ozodlikdan mahrum etish jazosini oʻtab boʻlgan fuqarolarga “dastlabki ijtimoiy-moddiy yordam paketi”**	**23 100**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	**23 100**
14	**Ijtimoiy koʻnikma markazlari**	**204 968**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	**204 968**

Xalq deputatlari Urganch tumani Kengashining
2024-yil 27-dekabrdagi
VII-3-021-12-173-K/24 -son qaroriga
3-ilova

Umumdavlat soliqlaridan tuman mahalliy byudjetlariga ajratmalar me'yori

Foiz hisobida

T/R	Shahar va tumanlar nomi	Aylanmadan olinadigan soliq	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i	Jismoniy shaxslarga tegishli mol-mulkni ijaraga berishdan oladigan yillik daromadi to‘g‘risidagi deklaratsiyaga asosan to‘laydigan, shuningdek yakka tartibdagi tadbirkorlar to‘laydigan jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i	Benzinni, dizel yoqilg‘isini va gazni yakuniy iste'molchilarga realizatsiya qilishdagi aksiz solig‘i	Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	Jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig‘i	Yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘i	Jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘i	Qurilish materiallari bo‘yicha yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq	Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq, bundan elektr stansiyalari tomonidan to‘lanadigan soliq mustasno	Davlat aktivlarini foydalanishga (ijaraga) berishdan qonunchilikda belgilangan normativlar bo‘yicha olingan daromadlar
1	Urganch tumani	100	43	100	0	100	100	100	100	100	100	100

Xalq deputatlari Urganch tumani
Kengashining
2024-yil 27-dekabrdagi
VII-3-021-12-173-K/24 -son qaroriga
4-ilova

Mahalliy byudjetning 2025-yil daromadlari va xarajatlariing chegaraviy hajmi

ming so‘m

Hudud nomi	**Daromad**	**Xarajat**
Urganch tumani	125 044 219	125 044 219

Xalq deputatlari Urganch tumani
Kengashining
2024-yil 27-dekabrdagi
VII-3-021-12-173-K/24 -son qaroriga
5-ilova

Tuman mahalliy byudjetida yo‘l qo‘yiladigan eng kam mablag‘lar miqdori

ming so‘mda

T/r	**Shahar va tumanlar**	**Miqdor**
1	Urganch tumani	985 000,0